http://uzresearchers.com
ANALYSIS OF INTERNATIONAL SCIENCES
International scientific journal
Volume: 2 Issue: 2

# TALABALARDA BOSHQARUV FAOLIYATINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA ISTIQBOLLARI

**Olimov Saydullo Soxobjonovich**
*Qo'qon Universiteti Ta'lim kafedrasi o'qituvchisi*
*+99899 493 28 77 sayd.olim.soxobjon55@mail.com*

***Annotatsiya:*** *Sardorlarning guruhda paydo bo`lishi tabiiy hol sifatida qaraladi. Boshqaruvga oid tadqiqotlarni metrik o'chami natijalarni isbotlash uchun eng ishonarli vosita statistika hisoblanadi.*
***Kalit so`zlar****: boshqaruv, lider, xarizmatik, kamtar, pragmatic, mezon, ishonch darajasi.*

***Аннотация****: Появление лидеров в в группе считается естественным явлением. Статистика является наиболее надежным инструментом, позволяющим доказать метрическую ценность результатов управленческих исследований.*
***Ключевые слова:*** *управления, лидер, харизматичный, скромный, прагматичний, критерий, уровень достоверности.*

***Abstrakt:*** *The emergence of lideris in the group is considered a natural phenomenon. Statistikics are the most reliable tool to prove the metric value of management research results.*
***Key words:*** *management, leader, charismatic, humble, pragmatic, criterion, confidence level.*

## KIRISH

Bugun dunyoning ijtimoiy iqtisodiy siyosiy hayoti tezlik va shiddat bilan o'zgarmoqda. Bunday o'zgarishlarni idrok etib oqilona va omilkorona faoliyat yuritishga rahbarlardan nazariy va amaliy tafakkurning kreativligini talab qilmoqda. Ushbu holat ko'proq rahbarlardan yoshlarga hos g'ayrat shijoat talab qilmoqda. Bugun dunyoning rivojlanayotgan va taraqqiy etgan davlatlarida ham boshqaruv faoliyatiga bo`lgan e`tibor ortgan. Shiddat bilan borayotgan o`zgarishlarga tez moslasha olish va boshqarish layoqati mavjud talabalarni aniqlash va ularda talabalik davridan boshqaruvga oid ko`nikma va malakalarni shakllantirish davr talabi bo`lib qolmoqda. Texnika, innovatsion texnologiya sohasi yaratilayotgan yangiliklarni o`zlashtirishda yoshlar peshqadamlik qilmoqda. Boshqaruv sohasida ham yosh "lider"larning ahamiyati ortib borishi kuzatilmoqda.

Bizga iqtisodiy integratsiya kerak! Bu borada muloqot va raqobatga tayyor bo`lishi uchun esa nafaqat rahbarlar, balki tadbirkor va ishbilarmonlar, barcha bo`g`indagi menejerlar o`z ustida tinimsiz ishlashi shart.[1,b-42] Zamonaviy menejment usullarni va korporativ boshqaruv tamoillarini joriy etish, autsoring

dasturlarini amalga oshirish bo`yicha ishlarni yanada kengroq davom ettirish lozim. [1.b-98] Davlat boshqaruv tizimining hududlar va sohalar bo`yicha samarali va sifatli faoliyat yuritishi borasida mavjud tartib-tamoyillarni optimallashtirish va soddalashtirish,boshqaruvning innovatsion shakllarini joriy etish lozim.[1.b-100]

Mavzuni o'rganish mobaynida boshqaruv soxasiga oid adabiyotlarni taxlildan o'tkazdik. Chet el olimlaridan Fayol, Taylor, Urbanovich, Rus olimlaridan L.S.Vigotskiy, G.M.Andreyeva R.Nemov, D.V.Parigin T.Y.Bazarov, O'zbek olimlaridan V.M.Karimova, Xayitov, O'.Shamsiyev. Boshqaruvga oid dissertatsiyalardan D.G.Muxamedova ning PhD va DSc, Abdullajonova D.S, Maxmudov A.M PhD disseertatsiyalari o'rganildi.

Bizga ma`lumki, "lider"lar saviyasining ortib borishi va ularning soni ko`payishi bu korxona yoki viloyat, hatto davlatning xalqaro miqyosda o`rni yuqorilab borishiga xizmat qiladi.

Boshqaruv mavzusida ilmiy ishlar olib borilar ekan, albatta, boshqaruvchi, boshliq so`zlari ishtirok etishi tabiiy. Fanda ushbu so`zlar o`rnida, albatta, xalqaro miqyosda "lider" so`zi qo`llaniladi. Liderlarga qo`yiladigan talablar olimlar tomonidan turlicha fikrlar berib o`tilgan.

Erikson –bu yangi liderlik modelining vakili bo`lib, uning eng muhim fazilatlari:

- Vaziyatni his qilish (vaziyatni tushunish va unga moslashish),
- Haqiqiylik Аутентичность (o`ziga sodiqlik),
- O`z jamoasi bilan tanishish qobiliyati (dunyoga ularning ko`zlari bilan qarash) va shu bilan birga unga qarshi turish.

"Yangi" va "eski" yetakchilar, ya`ni liderlar o`rtasidagi farq quyidagi jadvaldan yaqqol ko`rinib turibdi.

| Eski liderlar | Yangi liderlar |
|---|---|
| Xarizmatik | Kamtar |
| Harakat qilishga moyil | Meditatsiyaga moyil |
| Idealisti | Pragmatik |
| Yuqoridan pastga qarab muloqot qiladi | Pastdan yuqoriga qarab muloqot qiladi |
| Bo`ysunuvchilarni rag`batlantirish vositalari-qo`rquv va qo`rqitish. | Bo`ysunuvchilarni rag`batlantirish vositalari-ishontirish va ilhomlantirish. |

| | |
|---|---|
| Fokus-topshiriqqa qaratilgan | Fokus-insonlar bilan munosabatlarga qaratilgan. |
| Rassudok Sabab | Emotsional intellekt |
| O`zini o`ziga ishonch | O`zini tahlil qilish. |

Eriksonning prinsipi bir qarashda oddiydir, ammo muvaffaqiyat formulasi ularga asoslanadi. [2.b-100]

**Metodologiya.**

Tadqiqotimizning *metodologik qismi*da biz Harifordning "Sardor" metodi, T.Elersning "Muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasini tashxis qilish",T.Elersning "Mag'lubiyatdan qochish motivatsiyasi"ni diagnostika qilish, T.Shubertning "Tavakalchilikka moyillikni aniqlash", KOS-2 "Kommunikativlik va tashkilotchilik"ni aniqlash metodi va kuzatish metodlardan foydalandik.

Harifordning "Sardor" testi yordamida sardorlik qobilyatlarini aniqlash maqsadini amalga oshirdik, ushbu test haqidagi ma'lumotlar biz R.S. Nemovning "Практическая психология" (1996) kitobidan olindi. Bu metodika keng xalq ommasiga mo`ljallangan. "Sardor" metodikasi shartiga ko`ra olingan natijalar miqdoriga qarab liderlik ifodalanganligining quyidagi darajalari farqlanadi:

-25 ballgacha –liderlik sust ifodalanganligi; -26 balldan 35 ballgacha –liderlik o`rtacha ifodalanganligi; -36 balldan 40 ballgacha –liderlik kuchli darajada ifodalanganligi; -40 balldan yuqori –diktatorlikka moyillik mavjudligi.

T.Elersning "Muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasini tashxis qilish" metodini qo`llaymiz. Bu metodika nemis psixologi Theodor Ehlers Marburz`k universiteti professor o`qituvchisi tomonidan 1980- yilda yaratilgan. Metodika 41 ta savoldan tashkil topgan bo`lib, har bir savolga "ha" yoki "yo`q" deb javob berish kerak bo`ladi. Ballar yig`indisi to`rt darajadagi munosabatni belgilaydi. Testda kalit mavjud bo`lib, kalit bilan bir xil bo`lgan savol raqamlari uchun 1 balldan qo`yiladi.

0-10 past darajada, muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi past; 11-16 o`rta daraja, muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi o`rta; 17-20 yuqori, muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi yuqori; 21- va undan yuqori, muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi juda yuqori.

http://uzresearchers.com
ANALYSIS OF INTERNATIONAL SCIENCES
International scientific journal
Volume: 2 Issue: 2

*Natija*.Biz tomonimizdan olib borilgan tadqiqotlarda “Sardor” metodi natijalari quyidagicha bo`ldi. 10 nafar sinaluvchida (9,52%) liderlik sust ifodalanganligi namoyon bo`ldi.

Talabalardan 76 nafar sinaluvchida (72,38%) liderlikning o`rtacha darajasi ifodalanganligi namoyon bo`ldi. Sinaluvchi talabalarning 17 nafari (16,19%) liderlik kuchli darajada ifodalanganligini ko`ramiz. Talabalarning ichida bir nafari (1,05%)da diktatorlikka moyilligi borligi namoyon bo`ldi.

Tavsiflovchi statistika. 2-jadval.

| | N | Minimal qiymat | Maksimal qiymat | O`rtacha qiymat | Standart og`ish | Assimmetriya | Eksses |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Sardor_metodi_past_yuori | 105 | 1,00 | 2,00 | 1,1714 | ,37869 | 1,769 | 1,151 |
| Muvaffaqiyatga_erishish motivatsiyasi | 105 | 9,00 | 34,00 | 21,8857 | 3,89604 | -0,131 | 0,596 |

Tavsiflovchi statistika natijalari normada ekanligini ko`rsatmoqda.

Tadqiqotimizda olingan natijalarni Kolmogorov-Smirnov mezoni bo`yicha tahlildan o`tkazdik. 3-jadval.

| Shkalalar | Kolmogorov-Smirnov z | Ishonchlilik darajasi |
|---|---|---|
| Muvaffaqiyatga_erishish motivatsiyasi | 1,089 | 0,186 |

Olingan natijalar normal taqsimlanish qonuniga mos kelishi aniqlandi. Demak, biz tadqiqotimizni parametrik mezonlardan foydalanib olib borishimiz kerak.

Olingan ma`lumotlar Styudent t mezon bo`yicha rahbarlikka qobiliyati yuqorilar va pastlar tafovutlari **(n=105)** 4-jadval.

| | Sardor_metodi_ | N | Ortacha qiymat | Standart og`ish | t | Ishonchlilik darajasi |
|---|---|---|---|---|---|---|

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Muvaffaqiyatga_erishish_ motivatsiyasi | past | 87 | 21,5402 | 3,89634 | -2,162 | 0,040* |
| | yuqori | 18 | 23,5556 | 3,53507 | | |

Izoh ;*p<0,05 (95 %)




1-rasm

Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi bo`yicha o`tkazilgan tadqiqotimizda 105 nafar ishtirokchi qatnashib rahbarlikka qobiliyati "past" va "yuqori"lar o`rtasida ishonarli darajadagi farqlar kuzatildi($t=-2,162$; $p<0,05$). Rahbarlikka qobiliyati yuqorilarda muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi yuqori bo`ladi.

**Xulosa.**

Biz tomonimizdan 105 nafar oliy ta`limda ta`lim-tarbiya olayotgan talabalar bilan olib borilgan tadqiqotlarimiz natijalariga tayanib quyidagi xulosalarga keldik.

1.Talabalarda rahbarlik qobiliyatlari pastlarda muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi ham past bo`lar ekan.

2. Talabalarda rahbarlik qobiliyati yuqorilarda muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi yuqori bo`lar ekan.

Talabalarda rahbarlik qobiliyati yuqorilar boshqaruv faoliyatidan o`zlari uchun ijobiy xususiyatlar shakllantirishga ilhom olar ekan. Ya`ni, ular istiqbolda qo`yilgan maqsadning to`g`riligi va albatta, muvaffaqiyatga erishishga ishonch, qat'iyatlilik, boshqa insonlarda ham o`z fikr va qarashlariga ishonch uyg`ota oladigan, bir maqsad yo`lida ko`pchilikni birlashtira oladigan, muammolarning

yechimini topishda sovuqqonlik va guruh hissiyotiga ta`sir eta olish malakasi shakllanib borishi xarakterlidir. Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi yuqori bo`lishiga undovchi qadriyatlar: millati, xalqi, vatani ravnaqiga munosib hissa qo`shish. Rahbarlik sir-asrorlarini qunt bilan o`rganish yangicha boshqaruv shakllari bilan tanishib amaliy faoliyatda qo`llash texnikalarini o`zlashtirishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш.М. ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН СТРАТЕГИЯСИ. Тошкент; O`zbekiston 2020. 464–б.
2. Базаров Тахир Юсупович.Психологические грани изменяющейся организации/ Т. Ю. Базаров.- М., Аспект Пресс. 2007.-278 с.
3. Olimov S.S. Talabalarda boshqaruv faoliyatining psixologik xususiyatlari.Part 3 https://doi,org/10.5281/zenodo.6633860 Indonesia 2022. b- 61-65 .International Virtual Conference on Language and Literature proceeding.2022
4. 2. .Olimov S.S. (2023) Talabalarda boshqaruv faoliyatining psixologik xususiyatlari. ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИННОВАТЦИЯ, ФАН ВА ТАЪЛИМ Toshkent 2023. УУК 001 (062) КБК 72 я43 .10-ҚИСМ. 19-20.
5. 3.Olimov S.S.(2023) BOSHQARUV MUAMMOSINI O'RGANISHNING ZAMONAVIY TALABLARI. Educational Research in Universal Sciences,2(12), 245-248. Retrieved from http://erus.uz/index.php/er/article/view/5514
6. Soxobjonovich, O. S. (2024). FAVQULOTDA VAZIYATLARDA FUQAROLARNI BOSHQARISH VA BIRINCHI PSIXOLIGIK YORDAM. Analysis of International Sciences, 2(1), 111-115. http://uzresearchers.com
7. Сохобжонова Мадинахон (Кокон малекеттик педагогикалык институти, Озбекстат) "Цените науку" –УЛУУ ЖАЗУУЧУ, КООМДУК ИШМЕР Ч.АЙТМАТОВГО 95 ЖЫЛ КОНФЕРЕНЦИЯ 2023 11ДЕКАБР.
8. Sadriddinova, Z. M. (2023). BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI TA'LIMINI IJODIY TASHKIL ETISHNING MOHIYATI VA O'LCHOVLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 241–244. Retrieved from http://erus.uz/index.php/er/article/view/5513
9. 7.Xursanov O.(2023). TALABALARNI HAMKORLIK TEXNOLOGIYASI ASOSIDA O'QUV-MA'NAVIY MOSLASHUVCHANLIK IMKONIYATLARINI OSHIRISH TEXNOLOGIYASI (1-kurs talabalari misolida). Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 264-269. Retrieved from http://erus.uz/index.php/er/article/view/5519
10. Raximjonova U.N. (2023). O'smir yoshdagi o'quvchilarda "tarbiya" fanini o'qitish orqali mustaqil fikrlashga o'rgatish. Finland International Scientifik journal of Education, Social Science & Humanities, 11(6), 232-237.

11. Xatambayevna A.S. (2023) Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan 6-7 yoshli bolalarni ijtimoiy-hissiy rivojlanishining shart-sharoitlari. o’zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 2(17), 344-350.
12. Axadjon o‘g‘li, A. A., & Murotovich, M. F. (2023). RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA RAQAMLI IQTISODIYOT SIYOSATI. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 294-298.
13. UI Abdullaev Akhrorjon, Akhmadjonov O. (2023). Islom moliyasida shartnoma turlari. ISLOM INVESTITSIYA MAHSULOTLARI: XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI 1 …
14. Akhrorjon, A., & Maxliyoxon, O. (2024). IMPACT, RESULTS AND CONSEQUENCES OF WTO ACCESSION ON THE EDUCATION SYSTEM. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, *2*(1), 6-15.
15. Axrorjon, A., & Maxliyoxon, O. (2024). TA’LIM SIFATI OSHISHIDA JSTNING O ‘RNI. *YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR*, *2*(1), 113-118.
16. Abdullaev, A., & Odilova, M. (2024). THE ROLE OF WTO IN IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, *3*(1), 140-148.
17. Axadjon o‘g‘li, A. A., & Maxliyoxon, O. D. (2024). JSTGA A'ZOLIKNING RAQAMLI IQTISODIYOTGA VA TA’LIMGA IJOBIY TA'SIRI. *Analysis of International Sciences*, *2*(1), 95-102.